

## SUKSESSIYA AHAMIYATI VA TIPLARI

Ziyoiddinova Salomatxon Shavkatbek qizi

ADPI Biologiya yo'nalishi talabasi

salomatoyziyoiddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165200>

**Annotatsiya.** Mazkur tesizda suksessiya jarayoni, uning asosiy turlari va ahamiyati tahlil qilinadi. Birlamchi va ikkilamchi suksessiyaning tabiiy muhitga ta'siri va ekotizimlarni tiklashdagi roli yoritiladi.

**Abstract:** This thesis analyzes the process of succession, its main types and importance. The impact of primary and secondary succession on the natural environment and its role in the restoration of ecosystems are highlighted.

**Kalit so'zlar:** Ekologik suksessiya, autogen suksessiya, allogen suksessiya, ekzometabolitlar, birlamchi va ikkilamchi suksessiya.

**Keywords:** Ecological succession, autogenic succession, allogenic succession, exometabolites, primary and secondary succession.

Ekosistemalar rivojlanadi, o'zgarib turadi, ular ichidagi organizmlar o'ladi, ularning o'rniga boshqasi keladi. Ekosistemalardan tinimsiz energiya va ozuqa moddalari o'tib turadi. Shunga qaramasdan ko'pchilik sistemalarning tashqi qiyofasi va tarkibi o'zgarmaydi. Mabodo, sistema buziladigan bo'lsa (o'tloqzorni haydab tashlashda), ularning tiklanishi sekin bo'ladi. Buzilgan joylarga moslashib

o'sadigan birinchi turlar oldingi turlarning o'rnini bosadi, asta-ekin rivojlanadi va oldingi tarkibini hosil qiladi. Bunday jarayon *ekologik suksessiya* deb ataladi.

Agar suksession o'zgarish ichki munosabatlar orqali aniqlansa, u *autogen suksessiya* deyiladi. Agar o'zlashtirilgan tashqi muhit kuchlari doim ta'sir qilsa yoki boshqarib tursa (qattiq shamol, yong'in), bu *allogen suksessiya* deb ataladi. Suksessiya o'zgarishining asta-sekin rivojlanishi quyidagi yo'llar bilan bo'lib o'tadi:

1. Ekosistemaning energiyasi, sistemada asta-sekin organizmlar biomassasi va ularning organik chirindilar miqdori ortib boradi;
2. Biogen elementlarning aylanishi sistema ichida aylanish borgan sari xalqa ichiga o'tadi va ularning aylanish vaqti ortadi;
3. Ekosistemaning tuzilishi murakkablashadi va turlar tarkibi o'zgaradi, ularning boyligi ortib boradi.

Suksessiyaning sodir bo'lishida yashil o'simliklar muhim rol uynaydi. Chunki ularning ko'pchiligi o'z hayot faoliyati davomida va olgandan so'ng o'zidan biologik aktiv moddalar — ekzometabolitlar ajratadi.

Tuproq tarkibida ekzometabolitni ko'p miqdorda to'planishi tuproqning ozishiga va bir ijobiy fitosenozni ikkinchisi bilan almashinishi hamda o'simlik qoplami tarkibidagi ko'p yillik o'simliklarni ko'payishi va hukmronlikni egallashiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shu o'simliklar bilan hayot kechiradigan hayvonlar tarkibini o'zgarishiga olib kelishi muqarrar. Hukmron turlarning konkurensiya asosida almashinishi asta sekin turg'un abiotik muhit sharoitiga mos biosenozlarning shakllanishiga sabab boladi. Biosenoz murakkablasha borishi bilan uning tarkibidagi populyatsiyalarning o'zaro munosabati ham murakkablasha boradi. Ularning muhitga to'liq moslashmaganlari boshqa to'liq moslashish imkoni mavjud bo'lganlari

bilan almashinadi. Bu holat tashqi muhit sharoitiga toliq moslashgan, barqaror turlar tegishli muhit egallamaganga qadar davom etadi. Biosenozlarning shunga o'xshash bir-birini almashtirib turadigan zanjiri biosenozning suksession qatori deb yuritiladi.

Ko'pchilik hollarda ikki xil suksessiya farq qilinadi.

1. Avtotrof va geterotrof organizmlar ishtiroki mavjud suksessiya.
2. Faqat geterotrof organizmlar ishtiroki mavjud suksessiya.

Birinci turdagi suksessiya faqat organik moddalar jamg'armasi ko'p bo'lgan yoki bu moddalar doimiy ravishda surunkasiga hosil bo'lib turadigan (organik moddalarga boy havzalar, go'ng uyumlari, kompost) joylarda mavjud. Hayot holati va xossasiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi suksessiya bo'lishi mumkin.

*Birlamchi suksessiya* biologik faol bo'lmagan joylar, o'chgan lavalalar o'mida qirlar, qum uyumlari, daryo seli tufayli to'plangan tuproq uyumlari singari yerlarda shakllanayotgan suksessiya. Bunday yerlarda o'simliklar tomonidan egallanish jarayonida biosenozlarning ko'p martalab almashinuvi kuzatiladi va tuproq sharoitlarida qaytmas o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'simlik va hayvon qoldiqlarining asta-sekinlik bilan to'plana borishi tuproq qatlamini shakllanishi va mavjud joyning gidrologik tartibini o'zgarishiga olib keladi.

Lava vulqonlar og'zidan otiladi va u yo'lida uchragan hamma narsalarni yo'q qila oladigan darajada juda qaynoq. U sovigandan so'ng esa toshdan iborat bo'lgan yeming bir shakliga kiradi. Bir kun kelib bu yerlar o'rmon yoki maysazorga aylanishini tasavvur qilish qiyin. Bu jarayon dastlab asosiy ketma-ketlik deb nomlangan o'simlik mavjud bo'lmagan joylardan boshlanadi. Bu jarayon uchib kelgan lishayniklar bilan birga boshlanadi. Bu turlar doimiy turlar deb ataladi qaysiki bir joyda doim yashovchi turlardir. Ular qurg'ochilikdan, yuqori haroratdan, sovuqdan va noqulay sharoitdan jon saqlab qolishadi va tez-tez tuproqqa aylanishadi (Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005)

*Ikkilamchi suksessiya* oldindan mavjud bo'lgan va ma'lum tashqi ta'sir (yong'in, suv toshqini) tufayli tuzilmasi o'zgargan biosenoz o'mida shakllanadi. Bunday yerlarda boy hayot zahiralari saqlanadi. Shuningdek, bunday yerlarda suksessiya almashinuvi va biosenozning tiklanishi jadal ravishda boradi. Suksessiyalar davomida asta-sekin turlar (flora) boyligi va yaruslilik tiklanadi. Bunda bir yarusli o'simliklar qoplamidan ko'p yarusli o'simlik jamoalari shakllanadi.

Demak, suksessiya – bu ekotizimlarning tabiiy ravishda rivojlanishi va o'zgarishi jarayoni bo'lib, muayyan hududdagi biologik xilma-xillikning shakllanishi va barqaror ekotizimlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Uning ahamiyati ekologik muvozanatni tiklash, tuproq unumdorligini oshirish va yashash muhitini yaxshilashda muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. To'xtaev A. S. Xamidov A. "Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish".
2. S. Mustofayev, S. O'roqov, P. Suvonov "Umumiy ekologiya"
3. A. Ergashev, T. Ergashev "Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish"